



"OILA VA GENDER" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2024/2 (11)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.

DOI: 26739/2118-9998

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
SAIDOVA Galina Karimovna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
BEKMURADOV Adham Sharipovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna – *Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.*
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SAIDOV Akmal Xolmatovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*
YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*
TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – *tibbiyot fanlari nomzodi.*
UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
ZIYAYEV Azamad Xamidovich – *tarix fanlari doktori, professor.*
ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – *psixologiya fanlari doktori.*
TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*
Сандова Галина Каримовна – *доктор экономических наук, профессор.*
Шоумаров Гайрат Бахрамович – *доктор психологических наук, профессор.*
Абдураманов Хамид Худайbergenovich (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*
Бекмуратов Адхам Шарипович – *доктор экономических наук, профессор.*
Маъруфова Гулнора Махмудовна – *сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиси по вопросам женщины и гендерного равенства.*
Мусурманова Айниса Мусурмановна – *доктор педагогических наук, профессор.*
Рахимова Нигина Хайруллаевна – *доктор экономических наук, профессор.*
Сандов Акмал Холматович – *доктор юридических наук, профессор.*
Якубжанова Дилобар Батировна – *доктор педагогических наук, доцент.*
Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна – *кандидат медицинских наук.*
Умирзаков Баходир Хамидович – *доктор экономических наук, профессор.*
Зияев Азамат Хамидович – *доктор исторических наук, профессор.*
Абдусаматов Хасанбой Усмонжон угли – *доктор психологических наук.*
Туракулов Улугбек Холбутаевич – *доктор философии педагогических наук (PhD)*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna
(*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
Saidova Galina Karimovna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Shoumarov Ghayrat Bakhramovich – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Bekmuradov Adkham Sharipovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Marufova Gulnora Makhmudovna – *Senator, Member of the Senate Committee of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality.*
Musurmanova Aynisa Musurmanovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*
Rakhimova Nigina Khayrullayevna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Saidov Akmal Kholmatovich – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*
Yakubjanova Dilobar Batirovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*
Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – *Candidate of Medical sciences.*
Umirzakov Bakhodir Khamidovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Ziyayev Azamad Khamidovich – *Doctor of Historical sciences, Professor.*
Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli – *Doctor of Psychological Sciences.*
Torakulov Ulugbek Holbutayevich – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

XALQARO TAHRIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,
Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti
Xalqaro tadqiqotlar maktabi,
Javoharlal Neru universiteti,
Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,
Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,
pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,
Texnologiya fakulteti boshlig'i,
London biznes va moliya maktabi,
Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,
Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,
Школа международных исследований,
Университет Джавахарлала Неру,
Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина Иосифовна,
Челябинский государственный институт культуры,
доктор педагогических наук,
профессор

Доктор Прити Кесаван,
Руководитель Технологического факультета
Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar
Assistant Professor
Centre for Russian and Central Asian Studies
School of International Studies
Jawaharlal Nehru University
New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna
Chelyabinsk State Institute of Culture
Doctor of Pedagogical Sciences,
Professor

Dr. Preethi Kesavan
Head, School of Technology
London School of Business and Finance, Singapore

SOTSIOLOGIYA

Saydivalieva X.X., Kadirova T.J. Mehnat munosabatlarida kamsitish holatlarining oldini olish va gender tengligini ta'minlashning ijtimoiy huquqiy jihatlari	4
Мусаева М.И. Гендерные различия в диагностике расстройства аутистического спектра.....	12
Inoyatova S.J. Oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirishga oid xorij tajribasining o'ziga xos xususiyatlari	17
Ilxamova Z. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xotin-qizlarning ishtiroki	24
Zokirov S., Xusanova S. O'zbekistonda ta'lim davomiyligi: hududlar va jinslar bo'yicha farqlar, ularning sabablari.....	29

OILA VA JAMIYAT

Hojiyev R.B. Oilaviy nizolarni bartaraf qilishda oilaviy mediatsiyaning roli (Turkiya tajribasi misolida).....	35
Abduramanov X.X., Saxibov O.K., Rustamov J.I. Oilaviy ajrimlarning farzand tarbiyasiga ijtimoiy-psixologik ta'siri	40
Abdibositov A. Huquqiy ong tushunchasining tarkibiy tahliliga oid ayrim fikr va mulohazalar	46
Muhitdinova D. Huquqiy madaniyat yetishmasligi sababli kelib chiqadigan muammolar va ularni bartaraf etish	51

PSIXOLOGIYA

Yangiboyeva D.R. Ko'p bolali oilalar submadaniyatida shaxslararo munosabatlarning psixologik predikatlari	56
Xusanov S. "Mehnat motivatsiyasi" tushunchasining ilmiy-nazariy o'rganilishi	63
Аскарлова Г., Каримова Н. Социально-психологические особенности копинг-поведения среди молодежи	68
Nomozova R.O. Ilm-fan sohasida gender tenglikni rivojlantirishning psixologik aspektlari	75
Imonova M.B. O'smir shaxsi shakllanishida sibling maqomining psixologik ta'siri.....	80
G'ulomqodirov E.A. Psixologik nazariyalarda oilaviy zo'rvonlik tushunchasining talqini	85

PEDAGOGIKA

Qurbonova B.N. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning ijodkorligini shakllantirish	91
---	----

DEMOGRAFIYA

Dusnayev Sh.E. O'zbekiston aholisi soni va tarkibidagi dinamik o'zgarishlarning iqtisodiy-statistik tahlili	96
--	----

ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR

Rabiyev B.B. Ayollar uy xizmati migratsiyasini tartibga solish bo'yicha Filippin tajribasi.....	102
--	-----



**Abduramanov Xamid
Xudaybergenovich,**
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot
instituti direktor o‘rinbosari,
iqtisodiyot fanlari doktori, prof.
e-mail: khamid.abduramanov@bk.ru



Saxibov Oybek Ko‘yliyevich,
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot
instituti loyiha katta ilmiy xodimi



**Rustamov Jaxongir
Ikrom o‘g‘li,**
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot
instituti ilmiy xodimi
e-mail: rustamov9308@mail.com

OILAVIY AJRIMLARNING FARZAND TARBIYASIGA IJTIMOY-PSIXOLOGIK TA‘SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilaviy ajrashishlarning bolalar ta‘limiga ijtimoiy-psixologik ta‘siri ko‘rib chiqiladi. Maqola ushbu sohadagi empirik tadqiqotlar natijalariga asoslangan. Maqolada ajrimlarning bolalarning ta‘lim jarayoniga ta‘sirining asosiy jihatlari, shu jumladan, ularning o‘quv natijalari, maktabdagi xatti-harakatlari, o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi, o‘qituvchilar va tengdoshlari bilan munosabatlari, shuningdek, kelajakdagi kasbni tanlash tahlil qilinadi. Ajrashishning bolalar ta‘limiga ta‘sirining salbiy va ijobiy tomonlari, shuningdek, muvaffaqiyatli moslashish va o‘rganish qiyinchiliklarini bartaraf etishga yordam beradigan omillar ko‘rib chiqiladi.

Tayanch so‘zlar: oilaviy ajrim, bolalar, ta‘lim, ijtimoiy-psixologik ta‘sir, psixologik reaksiyalar, qo‘llab-quvvatlash dasturlari, ijtimoiy moslashuv, oila dinamikasi, psixologik maslahat, ta‘lim, ijtimoiy munosabatlar.

Аннотация. В данной статье рассматривается социально-психологическое влияние разделения семьи на образование детей. Исследование основано на результатах эмпирических исследований в данной области. В статье анализируются основные аспекты влияния развода на образование детей, включая их академические результаты, школьное поведение, мотивацию к учебе, отношения с учителями и сверстниками, а также выбор будущей профессии. Рассмотрены отрицательные и положительные стороны влияния развода на образование детей, а также факторы, помогающие преодолеть трудности успешной адаптации и обучения.

Ключевые слова: семейный развод, дети, образование, социально-психологическое влияние, психологические реакции, программы поддержки, социальная адаптация, семейная динамика, психологическое консультирование, воспитание, социальные отношения.

Annotation. This article examines the socio-psychological impact of family separation on children’s education. The study is based on the results of empirical research in this area. The article analyzes the main aspects of the impact of divorce on children’s education, including their academic results, school behavior, motivation to study, relationships with teachers and peers, and choice of future profession. The negative and positive aspects of the impact of divorce on children’s education, as well as factors that help overcome the difficulties of successful adaptation and learning are considered.

Keywords: family divorce, children, education, socio-psychological influence, psychological reactions, support programs, social adaptation, family dynamics, psychological counseling, education, social relationships.


Kirish. Oila mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham osoyishta bo‘ladi. Baxtli oilalar tufayli baxtiyor jamiyat shakllanadi. Chunki o‘zaro mehri bo‘lgan ota-onalarning farzandlari ham bir-biriga mehribon bo‘ladi. Oilada yuksak ma‘naviy

muhitni tashkil etish juda muhim. Ma‘lumki, ma‘naviy barkamol va jismoniy sog‘lom avlodni tarbiyalashda oilaning o‘rni juda muhim. Inson, avvalo, oilada tarbiyalanadi, aynan oilaga taalluqli boy va sermazmun milliy an‘analar o‘rgatiladi,

nasldan naslga qoldiriladi. Oila a'zolarining, ayniqsa, er-xotinning o'zaro murosas-madoraga borishi, g'azabi kelganda uni yengishi va shirin so'zli bo'lishi, shu bilan birga, oilaviy sirlarni ko'chaga olib chiqmasligi kabi bir qator omillar juda katta ahamiyat kasb etadi.


Maqsad va uni asoslash. Maqolaning maqsadi oiladagi munosabatlarning ijtimoiy farovonlikdagi ahamiyatiga e'tiborni qaratish va oila tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash jamiyatning kelajakdagi farovonligiga sarmoya ekanligini ko'rsatishdir.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil yanvar-dekabr oylarida oila qurganlar 238 808 nafarni tashkil etgan bo'lsa, ajrimlar soni 49 198 nafarni tashkil etgan. Bu esa har 21 ta yangi qurilgan oilalardan biri ajrashayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, farzandsiz ajrashganlar 50% ni, 1 nafar farzand bilan ajrashganlar 27,7% ni, ikki va undan ortiq farzandi bo'lib ajrashganlar 22,3% ni, ya'ni 11 012 nafarni tashkil etgan. Nikohdan ajrashishlar koeffitsiyentining eng yuqori darajasi Toshkent shahrida (2,1%), Sirdaryo viloyatida (1,7%), Andijon viloyatida (1,6%), Toshkent viloyatida (1,6%) va Namangan viloyatida (1,4%) ekanligi qayd etilgan¹. Ota-onasi bilan birga yashovchi to'liq oila farzandlari hamda ota-onasi ajrashgan oila farzandlarining nechanchi farzand ekanligi, o'qish darajasi va o'qishiga ta'sir ko'rsatuvchi shaxslar tahlil qilindi (1-2-3-rasmlar).




1-rasm. Sinaluvchilarning nechanchi farzand ekanligi haqida ma'lumot

¹ O'zbekiston Respublikasi demografik holatining asosiy ko'rsatkichlari: 2023-yil yanvar-dekabr, dastlabki ma'lumotlar. https://stat.uz/img/demografiya-press-reviz-26_01_2024-uzb.pdf



2-rasm. Sinaluvchilarning o'qish darajasi haqida ma'lumot



3-rasm. Sinaluvchilarning o'qish darajasiga ta'sir etuvchi shaxslar ko'rsatkichi

Umumiy ma'lumotlarga ko'ra, ajrashgan va to'liq oila farzandlarining o'qish darajasini oilaviy munosabatlarga aloqador deb baholash mumkin. Ajrashgan oilalarda tarbiyalanuvchilarning o'qish darajasi 17,8% sinaluvchilarda yomon ekanligi qayd etilgan. Shuningdek, ularning o'qish darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi shaxs onalar (30,7%) bo'lsa, to'liq oilalarda esa otalar (39,4%) ekanligi aniqlangan. Demak, oilada bolalar o'qishi otalar nazoratida bo'lsa, natijalar ijobiy bo'lar ekan. Biroq ajrashgan oilalardagi bolalar odatda onalar bilan qolgani sababli onalarning oilani ham moddiy, ham farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishida muammolar yuzaga kelish xavfi ortishi mumkin.

Ota-onasi ajrashgan bolalarning kim bilan yashashi, otasi yoki onasi bilan tez-tez ko'rishib turish imkoniyatining mavjudligi yoki mavjud emasligi, o'zi ham otasi yoki onasi bilan ko'rishishni istashi yoki istamasligi yuzasidan olingan so'rovnoma natijalariga ko'ra 51% bolalar onasi bilan, 35% bolalar ota-onasi bilan (mazkur sinaluvchilarning ota-onasi ajrashgan bo'lsa ham, bir uyda yashashi qayd etilgan), 9% sinaluvchilar


buvi-buvasi bilan va 5% sinaluvchilar esa otasi bilan birga yashashlari aniqlangan (4-rasm).




4-rasm. Ajrashgan oila farzandlarining kimni qaramog'ida ekanligi haqida ma'lumot



5-rasm. Otasi yoki onasi bilan tez-tez ko'rishib turishi haqida ma'lumot



6-rasm. Otasi yoki onasi bilan ko'rishishda to'siqlarning mavjud yoki mavjud emasligi haqida ma'lumot



7-rasm. Otasi yoki onasi bilan tez-tez ko'rishib turishni istaydimi?

Shuningdek, otasi yoki onasi bilan tez-tez ko'rishib turishi haqida so'ralganda 87% bolalar ko'rishishini va 13% sinaluvchilar ko'rishmasliklarini ta'kidlagan bo'lsa, (5-rasm), 19% sinaluvchilarda ko'rishish uchun to'siqlar mavjudligi (6-rasm), 10% bolalar esa ko'rishishni o'zlari ham istamasliklarini bildirganlar (7-rasm). 20% onalar qo'lida tarbiyalanayotgan bolalarning otasi bilan, 28% otalar qo'lida tarbiyalanayotgan bolalarning onalari bilan ko'rishishi uchun to'siqlar mavjud ekanligi aniqlangan.


Bolalarning psixologik xususiyatlarini o'rganish maqsadida D.Lampen, L.P.Ponomarenko tomonidan moslashtirilgan "Daraxt" proyektiv metodikasidan² foydalanildi (1-ilova). Metodika bolaning moslashuv muvaffaqiyatini baholash uchun ishlatilib, bunda moslashish jarayonining xususiyatlarini tezda aniqlash va bola uchun mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash imkonini beradi. Bolalar taklif qilingan vazifalarni zavq bilan bajaradilar va o'zlarini u yoki bu odamcha bilan osongina almashtiradilar. Metodika orqali bolalardagi 10 xil xususiyatlar aniqlanadi, bular:

1. To'siqlarni yengib o'tish uchun fikrlashni tavsiflash.
2. Xushmuomalalik, do'stona yordam.
3. Pozitsiya barqarorligi (qiyinchiliklarni yengmasdan muvaffaqiyatga erishish istagi).
4. Charchoq, umumiy zaiflik, kam kuch, uyatchanlik.
5. O'yin-kulgi uchun motivatsiya.
6. Ajralish, chekinish, tashvish.
7. Ta'lim jarayonidan ajralish, o'ziga chekinish.
8. Qulay holat, normal moslashish.
9. Inqiroz holati, "jarlikka tushish".
10. Ko'pincha o'z-o'zini hurmat qiladigan va yetakchilik fikriga ega bo'lganlar istiqboli sifatida tanlanadi.

"Daraxt" natijalarini odamlar usuli bilan talqin qilish ma'lum bir bola qanday pozitsiyalar tanlaganligi, qaysi shaxsning pozitsiyasi bilan o'zining haqiqiy va ideal pozitsiyasini aniqlaganligi va ular o'rtasida farqlar mavjudligiga qarab amalga oshiriladi. Metodologiyani amaliy qo'llash tajribasini hamda uning natijalarini o'quvchilarning

² Пономаренко Л.П. Психологическая профилактика дезадаптации учащихся в начале обучения в средней школе. Методические рекомендации для школьных психологов. — Одесса: Астра-Принт, 1999.

xatti-harakatlarini kuzatish, o'qituvchilar va otanalardan olingan ma'lumotlar, shuningdek, bola bilan o'rtasidagi suhbatlarini solishtirishni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Mazkur metodika orqali asosiy e'tibor qaratish zarur bo'lgan salbiy jihatlarga charchoq, umumiy zaiflik, past kuch, uyatchanlik, ajrashish, chekinish, tashvish, ta'lim jarayonidan ajrashish, o'ziga chekinish, inqiroz holati, "jarlikka tushish" shkalalariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. To'liq va ota-onasi ajrashgan oila farzandlarining umumiy natijalari quyidagicha (8-rasm):



8-rasm. Shaxs "O'zini o'zi baholash" shkalasi metodikasi natijalari

Tadqiqot natijalariga ko'ra to'siqlarni yengib o'tish to'liq oila farzandlarida 8,3% ni, ajrashgan oila bolalarida esa 11,8% ni tashkil etgan. Demak, ajrashgan oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar to'siqlarni yengib o'tishda sabrliroq va intiluvchanroq ekan. Balki bu ularning oilaviy munosabatlar tizimida boshdan kechirgan muammolari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Xushmuomalalik, do'stona yordam berish istagining yuqorili bo'yicha esa to'liq oilalarda tarbiyalanuvchi bolalar ko'rsatkichi 20,2% ni, ajrashgan oila bolalarida esa 15,7% ni tashkil etgan. Bu esa to'liq oilalarda tarbiyalanuvchi bolalarning nisbatan kirishimli, do'stlashuvchan va moslashuvchan ekanligini ko'rsatadi. Pozitsiya barqarorligi (qiyinchiliklarni yengmasdan muvaffaqiyatga erishish istagi) mavjudligiga ko'ra to'liq oilada tarbiyalanuvchilar 3,9%, ajrashgan oilada tarbiyalanuvchilar 4,6% ni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkichlar o'rtasida katta tafovut aniqlanmagan bo'lsa ham, ajrashgan oilalarda tarbiyalanayotganlarning qiyinchiliklarni yengmasdan muvaffaqiyatga erishish istagi yuqoriroq ekanligini ko'rish mumkin. Charchoq, umumiy zaiflik, kam kuch, uyatchanlik darajasi

to'liq oilada tarbiyalanayotganlarda 0,8% ni, ajrashgan oilalarda tarbiyalanayotganlarda esa 6,4% ni tashkil etgan. Bu esa ajrashgan oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarning ruhiy holati bilan jiddiy ishlash zaruratini ko'rsatadi. Ularning moslashishdagi qiyinchiliklari, tortinchoqlik, depressiya va stressga moyillik ko'rsatkichi to'liq oilaviy muhitda tarbiyalanayotganlardan sakkiz barobar ortiqroq ekanligini ko'rsatadi. Ajrashish, chekinish, tashvish darajasi to'liq oilada tarbiyalanayotganlarda 12,6% ni, ajrashgan oilalarda tarbiyalanayotganlarda esa 21,1% ni tashkil etib, bu ham yuqoridagi ko'rsatkichning aniqligini isbotlaydi. Ajrashgan oilalarda tarbiyalanayotganlar ajralish, xavotir, tez tushkunlikka tushish xavfidan to'liq oilada tarbiyalanayotganlarga nisbatan deyarli bir yarim barobar ko'proq aziyat chekadilar. Ta'lim jarayonidan ajralish, o'ziga chekinish ko'rsatkichi to'liq oilada tarbiyalanuvchilarda 0,9%, ajrashgan oila bolalarida esa 9,4% ni bo'lib, demak, ajrashgan oilalarda tarbiyalanuvchi bolalarning ta'lim bilan bog'liq muammolari to'liq oilalarda tarbiyalanuvchi bolalarga nisbatan o'n barobar ko'proq ekanligi aniqlangan. Qulay holat, normal moslashish ko'rsatkichi to'liq oilada tarbiyalanuvchilarda 13,4%, ajrashgan oilalarda tarbiyalanuvchilarda esa 2,8% ni tashkil qilgan. Mazkur natija ajrashgan oilalarda tarbiyalanuvchi bolalarning normal moslashish, qulaylik his qilish bilan bog'liq muammolari to'liq oilalarda tarbiyalanuvchilarga nisbatan to'rt yarim barobar yomonroq ekanligini ko'rsatadi. Inqiroz holati, "jarlikka tushish" darajasi to'liq oilalarda tarbiyalanuvchilarda 5,5%, ajrashgan oilalarda tarbiyalanuvchilarda esa 19,3% ko'rsatkichda bo'lib, mazkur natijani juda yuqori ko'rsatkich deb baholash mumkin. Ajrashgan oilalarda tarbiyalanuvchilarning inqiroz holatida ekanligi, depressiya va stressni boshdan kechirayotganini, moslasha olmaslik va izolyatsiya muammosini boshdan kechirayotganini anglatadi. Ularning o'ziga ishonchining pastligi, hayotiy motivatsiyaga muhtojligi va atrof-dagilarning qo'llab-quvvatlashi, daldasiga bo'lgan ehtiyoj yuqoriligini anglatadi.

O'z-o'zini hurmat qilish va yetakchilik fikriga egalik darajasi to'liq oilada tarbiyalanuvchilarda 24,4%, ajrashgan oilada tarbiyalanuvchilarda esa 10,1% ni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich orqali ham ajrashgan oilada tarbiyalanuvchilarning o'z-

o'zini hurmat qilish va yetakchilik fikriga egalik ko'rsatkichi past natijani qayd etgani aniqlandi.

Shaxs xulq-atvorining shakllanishida ijtimoiy omillarning ta'siri katta. Jumladan, agressiv xulq-atvorning ijtimoiy omillar ta'sirida rivojlanish xavfi yuqori. Ma'lumki, agressiyaning yuqoriligi shaxsning o'ziga ham (autoagressiya), atrofdagilarga ham (geteroagressiya) zararlidir. Mazkur omillarni inobatga olgan holda tadqiqot orqali sinaluvchilarning agressiya darajasi o'rganildi (9-rasm).



9-rasm. Ajrashgan oila farzandlarining agressiya ko'rsatkichi

Ajrashgan oila farzandlarining agressiya ko'rsatkichi 52% sinaluvchilarda o'rtacha bo'lib, bu o'rtacha darajada tajovuzkorlikni, lekin hayotda muvaffaqiyatli qadam tashlanayotganini, samimiylik, izzatlablik va ishonch mavjudligini anglatadi, 11% sinaluvchilarda tajovuzkorlikning past darajasi, haddan ziyod tinchliksevarlik, o'z kuchiga va imkoniyatlariga ishonch yetarli emasligini anglatadi. Bu esa ularda ko'proq qat'iylik bo'lishi kerakligini anglatadi. Agressiyaning yuqori darajasi 37% sinaluvchida baland ekanligi qayd etilgan. Bu ortiq darajada tajovuzkorlikni va ko'pincha boshqalarga nisbatan betayin va juda ham shafqatsiz bo'lishini, o'zining metodlariga ishongan holda rahbarlikka ko'tarilishga umid qilishini, bunda oila a'zolari va atrofdagilar manfaatlarini qurbon qila olishini anglatadi. Mazkur tajovuzkorona portlashlar yaratuvchanlikdan ko'ra buzg'unchilik xarakteriga ega.

Yakuniy qism. Eng keng tarqalgan xavf omillari oiladagi mojaro yoki zo'ravonlik, oilaviy muhitda umumiy muloqot va o'zaro tushunishning yetishmasligi, do'stlar yetishmovchiligi yoki yuzaki do'stlik aloqalari, qo'llab-quvvatlamaydigan o'qituvchilar, akademik bosim, qo'rqitish, maktabning yomon sharoitlari, ekran oldida ortiqcha o'tkazilgan vaqt, kambag'allik va ota-onalar migratsiyasi ekanligi ta'kidlangan. Hisobotda maktablardagi ruhiy salomatlik tadbirlari,

shuningdek, boshqa tarmoqlar bilan hamkorlik qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Ularning orasida quyidagilar mavjud:

- o'smirlar va ota-onalar uchun ogoh bo'lishga undaydigan holatlar, xavf va himoya omillari to'g'risida bilimlarni oshirish uchun maktablarda ruhiy salomatlik to'g'risida xabardorlikni oshirish;
- ruhiy salomatlik savodxonligi bo'yicha o'quv dasturini ishlab chiqish;
- maktab psixologlarining salohiyatni oshirish va maslahat berish usullarini yangilash bo'yicha ularning malakasini oshirish;
- ruhiy salomatlik xizmatlarini ko'rsatish uchun ilmiy asoslangan maqsadli dasturlarga sarmoya ajratish;
- qulay oilaviy muhitni yaratishga ko'maklashish;
- maktablar bilan mahallalarning hamkorligini kengaytirish kabilar keltirib o'tilgan³.

Demak, nafaqat ota-onasi ajrashgan, balki mamlakatdagi barcha bolalar, o'smirlar, yoshlarning ruhiy salomatligini mustahkamlash chorasini ko'rish zarur ekanligi ta'kidlangan.

Birinchidan, har bir ta'lim muassasasida ota-onasi ajrashgan oilalarda tarbiyalanuvchi bolalar ro'yxatini shakllantirish va ularning o'qish samaradorligini oshirish maqsadida qiziqishlarini aniqlab, yetakchi murabbiy hamda to'garaklarga jalb etish chorasini ko'rish zarur. Chunki bolalarning o'qishiga ustozlarning ta'sir ulushi ajrashgan oila farzandlarida 7,1% ni, to'liq oila farzandlarida esa 6,4% ni tashkil etgan. Ta'lim muassasalarida ustozlarning obro'sini oshirish, ularning bolalar ta'limidagi nufuzi va ulushini oshirish chorasini ko'rish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, deyarli 19% ajrashgan oila farzandlarida otasi yoki onasi bilan ko'rishishda to'siqlar mavjudligi, 13% sinaluvchilar esa ko'rishishni istamasligini bildirgan. Mazkur ko'rsatkichlar asosida ota yoki onalarga o'zining huquqiy burch va majburiyatlari bilan tanishtirish, bolalarga esa adovat tuyg'usini singdirmaslik bo'yicha psixologik tushuntirish ishlarini olib borish zarur. Shuningdek, ba'zi bolalarda shakllanib ulguragan ginaxonlik, adovat tuyg'ularini alternativ tuyg'ular bilan almashtirish, hissiyotlaridagi negativizmni korreksiyalash ehtiyoji mavjud.

³ <https://www.gazeta.uz/uz/2022/10/16/teenagers/>

Uchinchidan, ularning moslashishdagi qiyinchiliklari, tortinchoqlik, depressiya va stressga moyillik ko'rsatkichi to'liq oilaviy muhitda tarbiyalanayotganlardan sakkiz barobar balandligi, ajrashish, xavotir, tez tushkunlikka tushish xavfi ajrashgan oilada tarbiyalanuvchilarda to'liq oilada tarbiyalanayotganlarga nisbatan deyarli bir yarim barobar yuqoriligi, ajrashgan oilalarda tarbiyalanuvchi bolalarning ta'lim bilan bog'liq muammolari to'liq oilalarda tarbiyalanuvchi bolalarga nisbatan o'n barobar muammoliroq ekanligi, ajrashgan oilalarda tarbiyalanuvchi bolalarning normal moslashish, qulaylik his qilish bilan bog'liq muammolari to'liq oilalarda tarbiyalanuvchilarga nisbatan to'rt yarim barobar yomonroq ekanligini, inqiroz holati, "jarlikka tushish" darajasining yuqoriligi, ajrashgan oilalarda tarbiyalanuvchilarning inqiroz holatida ekanligi, depressiya va stressni boshdan kechirayotganini, moslasha olmaslik va izolyatsiya muammosini boshdan kechirayotgani, ularning o'ziga ishonchining pastligi, hayotiy motivatsiyaga muhtojligi va atrofdagilarning qo'llab-quvvatlashi,

daldasiga bo'lgan ehtiyoj yuqoriligi aniqlangan bo'lib, ular bilan psixologik korreksion tadbirlarni tashkil etish, seminar-treninglarga jalb etish lozim.

To'rtinchidan, ajrashgan oilada tarbiyalanuvchilarning o'z-o'zini hurmat qilish va yetakchilik fikriga egalik ko'rsatkichining past natijani qayd etgani aniqlandi. Bu ortiq darajada tajovuzkorlikni va ko'pincha boshqalarga nisbatan betayin hamda juda ham shafqatsiz bo'lishini, o'zining metodlariga ishongan holda rahbarlikka ko'tarilishga umid qilishini, bunda oila a'zolari va atrofdagilar manfaatlarini qurbon qila olishini anglatadi. Mazkur tajovuzkorona portlashlar yaratuvchanlikdan ko'ra buzg'unchilik xarakteriga ega. Ushbu ko'rsatkichlar dominantlikka, liderlikka, erkinlikka, e'tiborga, tan olinishga, hech kimga o'xshamaslikka, ajralib turishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligini ko'rsatgan. Mazkur omillarni inobatga olgan holda ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, liderlik sifatlarini kuchaytirish maqsadida tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida net-workinglar tashkil etish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi demografik holatining asosiy ko'rsatkichlari: 2023-yil yanvar–dekabr, dastlabki ma'lumotlar. https://stat.uz/img/demografiya-press-reliz-26_01_2024-uzb.pdf
2. Clarke L., Berrington A. Socio-demographic predictors of divorce. – 1999. 1960s Applied Economics 42, pp. 3367-3381.
3. Абдураманов Х. Многофакторный анализ и перспективы демографического развития в Республике Узбекистан. Экономика И Образование, 2020. 1(2), 137–142. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/4330
4. Абдураманов Х. Оценка тенденций демографического развития семьи. Экономика и инновационные технологии, 2018. (6), 7–20. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/10067
5. Abduramanov X.X. Changes of reproductive behavior of women of fertile age in. 2022.
6. Uzbekistan and factors of modern fertility increase. Russian Journal of Agricultural and SocioEconomic Sciences. №12 (132). pp. 3-7. DOI:10.18551/rjoas.2022-12.01
7. Abduramanov X. Increasing the efficiency of regulating demographic processes in the republic of Uzbekistan. DOI:10.48047/IJEMR/V09/I11/05
8. Abduramanov H.H., Honturayev B.B. Ways to eliminate problems with early marriage and premature birth. RJOAS, 5(125). pp. 187-192. DOI: 10.18551/rjoas.2022-05.21.
9. Rustamov J. Causes of early marriages and early births and their consequences // Open Access Repository. – 2023. – T. 4. – №. 03. pp. 99-104.
10. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/10/16/teenagers/>

“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT,
GENDER VA OILA

Общество, гендер и семья в Центральной Азии
Society, Gender and Family in Central Asia

xalqaro ilmiy jurnali

международный научный журнал

international academic journal

2024/2 (10)

DOI: 26739/2118-9998

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga
pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun
ilmiy maqolalar e‘lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

MUASSIS:

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O.,
Razzakova N., Sobirova E.,
Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 29.07.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.